

Viloyat hokimi ta'lif-tarbiya, tibbiy xizmat sifati hamda dorixonalardagi narxlarni o'rgandi



Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Sherobod tumanida bo'lib, mакtab, shifoxona va dorixonalar faoliyati bilan tanishdi. Tumandagi 8-sonli mакtabda ma'naviy-ma'rifiy ishlar ahvoli hamda ma'naviyat xonasidagi sharoitlar ko'zdan kechirildi. Ta'lif va targ'ibot ishlarida radioaloqadan samarali foydalanish yo'lga qo'yilganligi e'tirof etilib, tajribani ommalashtirish topshirildi.

Shundan so'ng, viloyat rahbari tuman markazidagi dorixonalarga kirib, narxlar hamda dorilarning shifokor retsepti bo'yicha berilishi bilan qiziqdi. Tuman shifoxonasida masalani o'rganish davom ettirilib, bemorlarning kasallik varaqalaridagi qaydlar ko'zdan kechirildi.

Tibbiy xizmat ko'rsatishda korrupsiyon holatlarni oldini olish bo'yicha qilinadigan ishlar talaygina ekanligi va odamlar hali tizimdan to'laqonli rozi emasligi ta'kidlandi. Soha mutasaddilariga tibbiy xizmat sifatini yaxshilash, bemorlarga bepul berilishi lozim bo'lgan dorilarning manzilli yetib borishini qat'iy nazorat qilish topshirig'i berildi.

Surxondaryo viloyati hokimligi [Axborot](#) xizmati